

## JAMIYAT HAYOTIDA LIBOSNING O'RNI

*Boqiyeva Maftunaxon Asliddin qizi**Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tuman**2-son kasb-hunar maktabi Tikuvchilik fanlari o'qituvchisi*

**Annatatsiya:** maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodga xalqimizning xilma-xil, rang-barang va jozibali liboslari tarixini o'rgatish orqali - yoshlarga milliy o'zlikni anglatish, o'zbek xalqining qadimdan to hozirgi davrgacha bo'lgan an'anaviy betakror kiyimlarini ko'rsatish, xalqimiz orasida saqlanib kelayotgan madaniy merosimizni aks ettirish va davomiyligini anglatish yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy liboslar, etnik, urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlar, mafkura, amaliy-bezak san'ati, libos - "kiyim-kechak" so'zлari odatda hozir "ansambl" (frantsuzcha ensemble - "birgalikda"), "портной".

Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslami o'rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tatbiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlaming milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma'noda libos tarixini o'rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga ulaming an'analari, yashash tarzi haqida kattagina ma'lumot ham beradi. Liboslar nafaqat insonlaming tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyligi, quvonchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi.

Kiyim jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Bir tomonidan, u inson mehnati mahsuli sifatida ma'lum bir moddiy qiymatga ega bo'lib, ma'lum bir ehtiyojlami qondirsa, ikkinchi tomonidan u amaliy-bezak san'ati namunasi hamdir. Me'moriy inshootlar, mehnat va turmush qurollari singari kiyim ham ma'lum bir tarixiy davr, mamlakatning tabiiy iqlim sharoiti, xalqning milliy o'ziga xosliklari va uning go'zallik haqidagi tasawuri haqida ma'lumot beradi.

Kiyim va libos tushunchalari mazmun-mohiyati jihatdan bir-biri bilan mushtarak ko'rinsa-da, ushbu tushunchalar o'rtasida birmuncha farqlar ham mavjud.

Kiyim deganda, awalo, inson tanasining turli qismlarini berkitish uchun zarur bo'Igan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlaridan himoyalaydigan buyumlar tushuniladi yoki bu badanni yopadigan nimaiki bo'lsa hammasi. Kiyimning qator turlari mavjud. Bular: ichki kiyim. ustki kiyim, turli uzunlikdagi paypoqlar, poyabzal, bosh kiyimlari..

Libos - "kiyim-kechak" so'zlari odatda hozir "ansambl" (frantsuzcha ensemble - "birgalikda") deb yuritiladitan tushunchani yoki tarkibiy qismlarining, qo'Shimcha bezaklarining xarakteriga, rangi, fakturasiga va hokazoga qarab ma'lum marosimlarga mo'ljallangan kostyumi bildiradi.

Mana shu predmetlar turli vazifalami bajaruvchi aksessuarlar, bezaklar, soch turmagi, pardoz bilan birga libosni tashkil etadi.

Aynan libos insonning ijtimoiy kelib chiqishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, yoshi, jinsi, xarakteri va estetik didini namoyon etadi.

Tikuvchilik kasbining paydo bo'liShi G'arbiy Yevropada XII asrga, rus Shaharlarida esa XIV asrlarga to'g'ri keladi.

Qadimgi Russiyada kiyimni "порты" yoki "портыще", kiyim tikadigan ustalarni esa "портной" deb atashar edi. XVI asrlarga kelib yangi so'z "платье" uning eski nomi o'rnini oldi. Lekin портной so'zi rus tilida mustahkam o'rashib oldi. Kiyimning formasi uning asosiy tavsifnomasi bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy kiyimning formasi uning ko'p asrlik turli tarixiy, iqtisodiy, milliy Sharoitlar to'g'risida, kiyimning mehnat sharoitiga, geografik muhitga moslaniShi natijasida vujudga kelgan. Kiyim hozirgi formasini hosil qilganigacha juda uzoq va murakkab masofani bosib o'tgan.

"Tikuvchi san'ati" jurnalining (1soni, 1908 y.) bergen ma'lumotiga qaraganda bichiSh sistemasini birinchi bo'lib 1818 -yilda frantsuz Mishel ixtiro etgan bo'lib, uni treti sistemasi deb atagan. Bu sistemaning paydo bo'liShi badanni o'lchaSh va chizmada kishining ayrim qismlari ko'rsatiladigan bo'ldi. Bundan oddin kiyimning uzunligi va kengligini aniqlaSh uchungina badan o'lchanar edi.

XIX asrning oxirgi choragida tikuvchilikda tikuv mashinalarini qo'llash kiyim detallarining murakkablaShiShiga va mehnat unumdorligini oShiriShga olib keldi. XX asrga kelib tikuvchi hunarmandlar o'rnini ishlab chiqarish korxonalari egalladi va unda ayollar keng qatnashishdi.

Bu davrda kiyimning yangi turi paydo bo'ldi. Chunki ayollar ichki kiyimidan korset belni qattiq qisar, nafas olish va ozod harakat qiliShga to'sqinlik qilar edi. SHuning uchun avvalo ichki kiyimlarning konstruktsiyasi va formasi o'zgardi. So'ngra yubkalar kaltalaShtirildi. Ko'yylaklar o'rniga 2-3 qismdan iborat qulay yubka va jaket paydo bo'ldi (ayniqsa iShlovchi ayollar uchun).

Birinchi bo'lib, ayollar modasiga erkaklarnikiga o'xshagan kostyumi 1928 - yilda Gabriel Shanel kiritdi.

20-yillarda Yevropa modasining rivojlaniShiga sovet rassomlari N. Lomanova, V. Muxina, A. Ekster katta hissa qo'shdilar. Ular ishchilar kiyimlarini modellashtirishda xalq milliy kiyimining bichimini asos qilib oliShdi.

30-yillarga kelib jahonda ommaviy kiyim ishlab chiqarish rivojlandi. Ayollar kiyimida to'g'ri, badanga ozgina yopishib turadigan va belga yopishib turadigan siluetlar paydo bo'ldi.

Kiyim haqida gapirganda Moda nima degan savol tug'ilishi mumkin. Moda - lotincha so'z (modus - ish o'lchami, usuli, yo'sini); bizlar uchun esa bu biron diddag'i kiyimning vaqtincha ko'payganligi.

Modani "tan olish" yoki "tan olmaslik", undan zavqlanish yoki xafa bo'liSh, uning ijodkori yoki quli bo'lish mumkin, lekin modadan chetda bo'lish mumkin emas ekan. Demak, moda sotsial hodisa, jamiy hayotining birqismi ekan.


Moda, kostyum, hamma vaqt jamiyatdagi muayyan tabaqalardan, mavqelardan ajralmas. Denak moda - sinfiy hodisa.

Kiyim - birinchi zarur narsa, u turli sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladi, juda katta magazin tarmokdarida sotiladi. Shunday qilib, moda iqtisodiy hodisa.


Moda kostyum yaratish san'ati sifatida, boshqa san'at turlari qatori estetik hodisa, alohida mamlakat, alohida davr, umuman insoniyat badiiy madaniyatining bir qismi.

Har bir kishi modani o'zicha idrok etadi; bu uning yoshiga, tabiatiga, e'tiqodiga, madani;tiga, xullas - Shaxsiyatiga bog'liq. Moda har birimiz uchun ichki dunyomizning bir qismi, psixologik hodisa; unga munosabat, uni tanlaSh esa - ma'naviy hodisa.

Did masalasi ham oddiy masala emas. Did - bu avvalo, hamma narsadagi (nimani, qaerda kiyishni, o'zining tashqi qiyofasiga qanday munosabatda bo'lishni, o'zini qanday tutishni va hokazo bo'lishdagi) me'yor tuyg'usi.



Kiyimning asosiy funksiyasi quyidagi guruhlarga bo'linadi.



1.1-sxema. Kiyim funksiyalari.

Utilitar funksiya himoyaviy va fiziologik-gigiyenik funksiyalarga ajratiladi. Har bir funksiya keyingi pog'onada yanada kengroq aniqlanadi.

Axborot funksiyalari odam (kasbi, didi, madaniyati) va uning kiyimi to'g'risida axborot beradi (kiyim vazifasi, o'rirliligi, zamonaviyiligi, yangilikligi va h.k).

Kiyim turi aholininng didi, talabining o'sishi, madaniyati va yangilikka intilishi natijasida o'zgarib turadi.

Keyinchalik kiyimning takomillashishi , odamlarning moddiy va amaliy mashg'uloti bilan bog'liq bo'lgan tikuvchilik dastgohining yaratilishi, to'qimachilik kasbinining rivojlanishi, avval gazlamadan burmalangan, keyin esa tikilgan kiyimning paydo bo'lishiga olib keldi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Q.M.Abdullayeva, N.S.Gaipova, V.A.Gafurova, Tikuv buyumlarini loyihalash va modellash va badiiy bezash, Toshkent-2016.
2. Mahmud Sattor, O'zbek udumlari, Toshkent-2016.
2. Jabborova M.SH. «Tikuvchilik texnologiyasi», T., O'zbekiston, 2004y.
3. Rasulova M.K. "Tikuv buyum larni ishlab chiqarish texnologiyasi" Toshkent,2006 y.
4. Qulijanova G.K., S.S.Musaev "Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi". Toshkent 2002 y.
5. Truxanova M.T., Texnologiya jenskoy i detskoy legkoy odejdi, 2005y.

### Internet saytlar ro`yxati:

-[www.osinka.ru](http://www.osinka.ru)

-<http://tvorime-gloryan.com>



- <http://www.prosv.ru>
- [www.mirknning.com/knigi/hobby-remesla/](http://www.mirknning.com/knigi/hobby-remesla/)
- <http://www.modeling-designing.narod.ru>
- <http://www.cadrus.ru/designer/literature/>
- <http://www.ucbunda.ru>
- [http://www.bazis.ru/modelivavanil\\_konstruina vanil/](http://www.bazis.ru/modelivavanil_konstruina vanil/)
- <http://www.fashionkurs.ru>